

**IBORALAR VA MAQOLLAR TARJIMASIDA YUZAGA KELADIGAN
MUAMMOLAR**

Akbarova Faridaxon Botirali qizi
*Andijon Davlat chet tillari instituti,
Roman – German va slavyan tillari
fakulteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti
yo‘nalishi I – bosqich talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbekcha–ruscha yoki ruscha-o‘zbekcha iboralar tarjimasida uchraydigan muammolar, ularning sabab va turlari, shuningdek, bu muammolarga yechim bo‘la oladigan tarjima strategiyalari ko‘rib chiqiladi. Maqola nazariy mulohazalar bilan birga, amaliy misollar asosida olib boriladi. Asosiy maqsad — o‘zbek tilidan rus tiliga tarjima qilinayotgan frazeologik birliklarning tarjimasida yo‘l qo‘yiladigan xatolarni aniqlash va tarjimonlar uchun foydali yondashuvlarni taklif qilishdan iborat.

Аннотация

В данной статье рассматриваются проблемы, возникающие при переводе фразеологических единиц с узбекского языка на русский и наоборот, их причины и разновидности, а также стратегии перевода, способные послужить решением данных трудностей. Работа включает не только теоретические рассуждения, но и опирается на практические примеры. Основная цель статьи заключается в выявлении ошибок, допускаемых при переводе фразеологических единиц с узбекского языка на русский, и в предложении эффективных подходов, полезных для переводчиков.

Annotation

This article examines the issues encountered in the translation of phraseological units from Uzbek into Russian and vice versa, their causes and types, as well as translation strategies that may serve as potential solutions to these problems. The discussion is based not only on theoretical considerations but also supported by practical examples. The main objective of the paper is to identify common mistakes made when translating phraseological expressions from Uzbek into Russian and to propose effective approaches that could be useful for translators.

Kalit so‘zlar: tarjima, frazeologizm, maqollar, funksional birliklar, semantik birliklar, ekvivalentlik, kontekst, madaniyat, urf-odatlar

Ключевые слова: перевод, фразеологизмы, пословицы, функциональные и семантические единицы, эквивалентность, контекст, культура, обычаи и традиции

Key words: translation, phraseologisms, proverbs, functional and semantic units, equivalence, context, culture, customs, and traditions

KIRISH

Har bir xalqning til boyligi, avvalo, uning frazeologik birliklari — iboralar va maqollar orqali namoyon bo'ladi. Bu birliklar xalq tafakkurining, urf-odatlar va madaniyatining ifodasi hisoblanadi. Shu sababli ibora va maqollar tarjimasida oddiy so'zlar tarjimasidan keskin farq qiladi. Frazeologik birliklar va maqollar har bir tilda o'ziga xos bo'lib, ularni tarjima qilish jarayonida bir qancha muammolar tug'dirishi mumkin. Ularni boshqa tilda aniq va to'g'ri ifodalash tarjimon uchun katta mas'uliyat va bilim talab qiladi. Ruscha-o'zbekcha til juftligida tarjima jarayonida ko'plab iboralar va maqollar o'zbek tilida aniq ekvivalentga ega bo'lmasligi mumkin. Ayrim hollarda ularning ma'nosi boshqa madaniyatda tushunarsiz bo'lib chiqadi yoki noto'g'ri talqin qilinadi. Bu holat tarjimada semantik buzilishlarga, konnotatsiya yo'qolishiga yoki mazmuniy noto'g'riliklarga olib keladi.

Mazkur maqolada aynan o'zbek tilidan rus tiliga iboralar va maqollar tarjimasida uchraydigan muammolar tahlil qilinadi. Bunda asosiy e'tibor frazeologik birliklarning o'ziga xosliklariga, tarjimada yuzaga keladigan qiyinchiliklarga va ularni yengib o'tish yo'llariga qaratiladi. Misollar asosida muhokama qilinib, tarjimonlar uchun foydali yondashuvlar taklif etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotda qiyosiy va tipologik usullar asosida o'zbek va rus tillarida frazeologik birliklar – ibora, maqol va matallar tarjimasida yuzaga keluvchi turli xil muammolar tahlil qilindi. O'zbek va rus tillarining ilmiy manbalari (o'zbek tilining iboralar lug'ati, rus tilining frazalar lug'ati, grammatik qo'llanmalar, ilmiy adabiyotlar va maqolalar) asosida tahlillar olib boriladi. Har ikki tildan ibora va maqollar tarjimasidagi farqlar taqqoslandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida ularning tuzilishi va mazmunini solishtirish orqali funksional va semantik mustaqil birliklar tanlab olinadi. Bu prinsiplar til elementlarini o'xshashlik va mos kelish orqali ifoda qilinadi. Ushbu birliklarning tuzilishi va ma'nosi mos kelishi mumkin yoki moslashishda ayrim kamchiliklar orqali taqdim etiladi. Frazeologik birliklarning tuzilishi va mazmuni jihatidan to'liq mos bo'lishi kam kuzatiladi. Iboralar va maqollar tilning bevosita tarjima qilinmaydigan unsurlaridan hisoblanadi. Chunki ularning ma'nosi ko'pincha so'zlarning yuzaki mazmunidan emas, balki butun birlikning obrazli, ko'chma ma'nosidan kelib chiqadi. Masalan, o'zbek tilidagi "Ko'z tegmasin" iborasi rus tiliga "не сглазь" tarzida tarjima qilinadi. Agar uni so'zma-so'z tarjima qilsak (не попади в глаз), u kulgili va noto'g'ri bo'lib chiqadi. Ko'plab tarjimonlar iboralarni

tushunmasdan soʻzma-soʻz tarjima qilishga urinadilar, bu esa maʼno buzilishiga olib keladi. Masalan:

- "Yelkasiga yuk tushdi" – на его плечо упала ноша (notoʻgʻri), toʻgʻrisi – он взял на себя ответственность.
- "Yuziga tik qaradi" – он смотрел прямо в лицо emas, balki он смело посмотрел ему в глаза.

Bu misollar soʻzma-soʻz yondashuv frazeologizmlarning haqiqiy maʼnosini bera olmasligini koʻrsatadi. Oʻzbek tilidagi baʼzi iboralar va maqollar rus tilida ekvivalentga ega emas, chunki ular muayyan milliy anʼanalar, urf-odatlar yoki tarixiy tajribalar bilan bogʻliq. Misol uchun:

- "Qoʻshning tinch – sen tinch" – rus tilida bu kabi fikr "Хороший сосед – залог спокойной жизни" tarzida kontekstual tarzda berilishi mumkin.
- "Oʻt oʻchmasdan tutun chiqmaydi" – нет дыма без огня – bu yerda ekvivalent toʻgʻri topilgan.

Biroq, baʼzi maqollar faqat tavsifli yoki izohli tarjima orqali ifodalanadi. Iboralar va maqollarni tarjima qilishda toʻgʻri ekvivalentni topish muhim. Agar toʻgʻri ekvivalent topilmasa, ibora maʼnosi rus tilidagi mavjud frazeologizm bilan almashtiriladi. Masalan:

- "Koʻz ochib yumguncha" – "в мгновение ока".

Tarjima jarayonida tavsifli tarjima usulidan ham foydalanishimiz mumkin. Bu usulda agar ekvivalent mavjud boʻlmasa, ibora maʼnosi bayon qilinadi. Masalan:

- "Tili achchiq" – "он говорит резкие слова".
- "Yeyish uchun yashama, Yashash uchun ye" – "Ешь просто – проживёшь лет до ста"

Yana bir usullardan biri bu - izohli tarjima hisoblanadi. Bunda ibora asl holicha qoldiriladi, izoh esa matn chetida yoki izohlar roʻyxatida beriladi.

Matn ichida uchragan ayni bir maqol yoki matalni, idioma yoki soʻz oʻyinini bit nechta tarjimon har xil tarjima qiladi. Toʻgʻri, ularning tarjimalari bir-biriga oʻxshashi ham mumkin. Lekin koʻpincha ular maʼlum darajada bir-biridan tafovut qiladi. Buning sababi shuki, bir tarjimon koʻchma maʼnoli birikmani uning obrazli asosini saqlagan holda tarjima qilishni maʼqul koʻrsa, boshqasi uning oʻz tilida mavjud muqobil varianti bilan berishni lozim topadi, yana boshqasi esa uni oʻzicha oʻngʻay deb hisoblagan boshqa bir yoʻl bilan agʻdaradi.¹

Tarjimon nafaqat tilni, balki xalqning mentaliteti va madaniyatini ham yaxshi bilishi lozim. Iboralarni toʻgʻri talqin qilish — tarjimonning madaniy sezgirligi,

¹ Gʻaybulla Salomov (1961) "Maqol va idiomalar tarjimasini: Rus tilidan oʻzbekchaga maqol, matal va idiomalar tarjima qilish masalasiga doir". Toshkent: Oʻzbekiston SSR Fanlar akademiyasi

tajribasi va tafakkuriga bog‘liq. Har bir iborani tarjima qilishda kontekst, matn janri va maqsadli auditoriya inobatga olinishi zarur.

XULOSA

Iboralar va maqollar tarjimasi tilshunoslik va tarjimashunoslikda eng nozik va mas'uliyatli sohalardan biridir. Tarjimon faqat lug‘aviy bilim bilan cheklanmasdan, madaniy tafovutlarni, xalqona tafakkurni va til obrazlarini chuqur anglashga intilishi kerak. Maqola davomida o‘zbekcha–ruscha til juftligida uchraydigan asosiy muammolar – so‘zma-so‘z tarjima, madaniy ekvivalent yo‘qligi, va noto‘g‘ri talqinlar ko‘rib chiqildi.

Yakuniy natija sifatida shuni aytish mumkinki, iboralar va maqollarni muvaffaqiyatli tarjima qilish uchun tarjimon quyidagi jihatlarga e’tibor qaratishi kerak: frazeologik birliklarning asl ma’nosini aniqlash; maqsadli til (rus tilidagi) ekvivalentni aniqlash yoki tavsifli tarzda ifodalash; madaniy moslik va kontekstga asoslangan yondashuvni tanlash.

Tarjimada iboralarini to‘g‘ri ifodalash nafaqat til soddaligini, balki matnning estetik, madaniy va mazmuniy aniqligini ham ta'minlaydi. Shu bois tarjimonlarning bu sohadagi bilim va malakalarini doimiy oshirib borishi dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asiljonova Sh., Qodirqulova Sh., Bobojonova M., Sa’dullayeva Sh.(2022) – “Tarjimaning 3 xil tilda:o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi frazeologik muammolari”. www.carjis.org DOI:10.24412/2181-2454-2022-4-292-295
2. Baker, Mona. In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge, 2011
3. I. G‘afurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov – “Tarjima nazariyasi”
4. <https://maqollar.uz>
5. Sadikova S.M. (2024). “Frazeologik birliklar va ularning tarjima jarayonidagi muammolar va ularni hal qilish yo‘llari”, <https://doi.org/10.5281/zenodo.13968532>
6. G‘aybulla Salomov (1961) “Maqol va idiomalar tarjimasi: Rus tilidan o‘zbekchaga maqol, matal va idiomalar tarjima qilish masalasiga doir”. Toshkent: O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi